V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

HOMIDOV MUHRIDDIN KARIMJON O‘G‘LI

MAXSUSLIKKA EGA BO‘LGAN DINAMIK SISTEMALAR KUTISH VAQTLARI UCHUN LIMIT TEOREMALAR

01.01.05 – Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

UDK: 519.214

Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по физико-математическим наукам

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on
physical-mathematical sciences

V.I.ROMANOVSKIY NOMIDAGI MATEMATIKA INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI

HOMIDOV MUHRIDDIN KARIMJON O‘G‘LI

MAXSUSLIKKA EGA BO‘LGAN DINAMIK SISTEMALAR KUTISH VAQTLARI UCHUN LIMIT TEOREMALAR

01.01.05 – Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika

FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2023

Fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2022.3.PhD/FM752 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash vebsahifasi: (http://kengash.mathinst.uz) va “ZiyoNet” ta’lim axborot tarmog‘ida (http:www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Djalilov Ahtam Abduraxmanovich** Fizika-matematika fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Miraxmedov Sherzod Adilovich** fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Azimov Jahongir Bahromovich fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Namangan muhandislik-qurilish instituti**

Dissertatsiya himoyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil “ ___ ”__________soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100174, Toshkent shahar., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz).

Dissertatsiya bilan V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahar., Olmazor tumani, Universitet ko‘chasi, 9-uy. Tel.: (+99871)-207-91-40.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil “ ___ ” __________ kuni tarqatildi.

(2023 yil “ ___ ” ______________dagi -raqamli reestr bayonnomasi).

A.Azamov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash rais o‘rinbosari,
f.-m.f.d., akademik

J.K.Adashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash ilmiy kotibi,
f-m.f.d., katta ilmiy xodim

SH.K.Formanov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash huzuridagi
Ilmiy seminar raisi,
f.-m.f.d., akademik

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida fundamental fanlar sohasida olib borilayotgan ko‘plab ilmiy-amaliy tadqiqotlar zamonaviy dinamik sistemalar xususan bir o‘lchamli dinamik sistemalarni tadqiq qilishga keltiriladi. Zamonaviy bir o‘lchamli diskret vaqtli dinamik sistemalar nazariyasida, maxsuslikka ega bo‘lgan aylana akslantirishlarini, ularning orbitalari yordamida hosil qilingan dinamik parchalanishlarning asimptotik holatini tadqiq qilish dolzarb masala hisoblanadi. Dastlab, XIX asr oxirida osmon mexanikasining muammolarini tadqiq qilish, aylana akslantirishlari va qaytish vaqti masalalari bilan bog‘liq ravishda tadqiq qilingan. Nochiziqli jarayonlarning ko‘plab masalalari va amaliyotning, jumladan, yurak kasalliklarining, elektr tarmoqlarining va tabiiy fanlarning matematik modellarini tadqiq qilish aylana akslantirishlari bilan uzviy bog‘liq.

Hozir kunda, dinamik sistemalarning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan aylananing silliq akslantirishlarini, bo‘lakli silliq va kritik akslantirishlarini va nochiziqli jarayonlarni matematik modellashtirish ustida muhim izlanishlar olib borilmoqda. Shu kabi jarayonlar murakkab tuzilishga va xaotik xarakterga ega bo‘lgani uchun bu masalalarni hal etishda ehtimollar nazariyasining metodlarini qo‘llash salmoqli natijalar bermoqda. Bunda, olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar dinamik sistemalar orqali hosil qilingan tasodifiy miqdorlar ketma-ketliklari uchun limit teoremalar isbotlashning alohida ahamiyat kasb etishini ko‘rsatib bermoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilayotgan izlanishlar dinamik sistemalarning qaytish va kutish vaqtlari orqali hosil qilingan tasodifiy miqdorlar ketma-ketligining asimptotik holatlarini aniqlash kabi masalalar maqsadli ilmiy tadqiqotlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda matematikaning fundamental va ilmiy va amaliy tadbiqiga ega bo‘lgan amaliy matematika, informatika, raqamli iqtisodiyot, ehtimollar nazariyasi va dinamik sistemalar nazariyasiga keng e’tibor berilmoqda. Jumladan so‘nggi yillarda dinamik sistemalar va ehtimollar nazariyasi zamonaviy matematikaning muhim tashkil etuvchisi sifatida, amaliy va nazariy masalalarni yechishda ko‘plab natijalarga erishildi. Shu bilan birga, ehtimollar nazariyasi va matematik statistika fanining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha xalqaro standartlar darajasida ilmiy tadqiqotlar olib borish asosiy vazifalar va faoliyat etib belgilandi[1]. Bu borada maxsuslikka ega aylana akslantirishlarini tadqiq qilish nazariy va amaliy jihatdan alohida ahamiyatga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-4947 Farmoni, 2019 yil 9 iyuldagi “Matematika ta’limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4387-sonli va 2020 yil 7 maydagi “Matematika sohasidagi ta’lim sifatini oshirish va ilmiy

[1] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017 yil 18 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining yangidan tashkil etilgan ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 292-sonli qarori.

tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4708 sonli Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. “Matematika, mexanika va informatika” ustivor yo‘nalishi aylanasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ehtimollik o‘lchovlarini o‘zaro taqqoslash masalasi matematikaning ko‘plab sohalari xususan o‘lchovlar nazariyasi, ehtimollar nazariyasi va dinamik sistemalar uchun muhim hisoblanadi. Dinamik sistemalar nazariyasining kutish va qaytish vaqtlarining xatti-harakatlarini o‘rganish ergodiklik nazariyasining muhim muammosidir. Bu muammolar dinamik Borel-Kantelli masalasi bilan bevosita bog‘liq. Olimlar dinamik sistemalar uchun qaytish vaqtlari muammosining tezligini o‘rganishga katta qiziqish bildirmoqda.

O‘lchovni saqlovchi dinamik sistemalar uchun fundamental natijalar Anri Puankare tomonidan olingan. Keyinchalik nuqtaning o‘zi yotgan to‘plamga qaytish vaqtining tezligini baholash haqida juda ko‘plab maqolalar chiqarildi. Fundamental natijalar A. Puankare, M. Katz, A.D. Viyner, J. Ziv, D. Ornsteyn B. Veyss va boshqalar tomonidan olingan. Musbat entropiyali dinamik sistemalar uchun uchun qaytish va kutish vaqtilarining yaqinlashish masalasi yaxshi o‘rganilgan. Oxirgi muhim natijalar musbat entropiyali dinamik sistemalar uchun L. Barreyra va B. Saussol tomonidan olingan. Ma’lumki chiziqli irratsional burish $T_\rho x = x + \rho \mod 1$ akslantirishlarining entropiyasi nolga teng. D. Kim va B. Seo tomonidan chiziqli irratsional burish uchun $f_2(x) = 2x \mod 1$ xaotik akslantirish orqali hosil qilingan $\{Q_n\}$ parchalanishlar ketma-ketliklariga tushish vaqti tasodifiy miqdorlarining asimptotik holatini o‘rganilgan. Koelo va de Faria tomonidan chiziqli irratsional burish akslantirishi uchun x_0 nuqtaning renorm $V_n = [x_{q_{n-1}}, x_{q_n}]$ atroflariga tushish vaqti tasodifiy miqdorlarini yaqinlashish masalasini o‘rganilgan. Nochiziqli aylana gomeomorfizmlari va chiziqli irratsional burish orasidagi qo‘shma gomeomorfizmning silliqlik masalasi aylana akslantirishlari nazariyasining muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Aylananning analitik diffeomorfizmlar sinfi dastlab V.I. Arnold tomonidan o‘rganilgan. Aylana diffeomorfizmlari va chiziqli irratsional burish akslantirishlari orasidagi qo‘shma gomeomorfizmning absolyut uzluksiz bo‘lishi M. Erman, Yu. Mozer, J. Yokkoz, X. Katsnelson, D. Ornsteyn, Ya. Sinai, K.Hanin va boshqalarning ishlarida isbotlangan. So‘nggi eng muhim natija X. Katsnelson va D. Ornsteyn tomonidan isbotlangan. Qo‘shma gomeomorfizm absolyut uzluksiz bo‘lganligi uchun aylana diffeomorfizmining invariant ehtimollik o‘lchovi Lebeg o‘lchoviga nisbatan absolyut uzluksiz bo‘ladi. Shu sababli tushish vaqti masalalari uchun chiziqli irratsional burish akslantirishlarida olingan natijalar aylana diffeomorfizmlarida ham o‘rinli bo‘ladi. Sinish tipidagi yoki kritik tipdagi maxsuslikka ega aylana akslantirishlari aylana diffeomorfizmlarining tabiiy umumlashmasidir. Aylananing sinish tipidagi maxsuslikka ega akslatirishlari M. Erman, I. Lious I. Koelo va A. Lopes ishlarida o‘rganilgan. Aylananing sinish tipidagi maxsuslikka ega akslatirishlarining invariant ehtimollik o‘lchovi A. Djalilov, K. Hanin, D. Mayer, I. Lious U. Safarov A. Teplinskiy va boshqalarning ishlarida o‘rganilgan. Kritik tipdagi maxsuslikka ega aylana akslantirishlari dastlab D. Yokkoz tomonidan o‘rganilgan va bu akslantirishlar chiziqli irratsional burishga topologik ekvivalent bo‘lishi isbotlangan. Keyinchalik Grachek va G. Sventek tomonidan kritik aylana akslantirishlarining invariant o‘lchovi Lebeg o‘lchoviga nisbatan singular bo‘lishi isbotlangan.

Dastlab, A. Djalilov tomonidan bitta nuqtada kritik maxsuslikka ega va burish soni (“oltin kesim”) ga teng bo‘lgan aylana akslantirishlari uchun kritik nuqtaning renorm $V_n = [x_{q_{n-1}}, x_{q_n}]$ atroflariga tushish vaqti tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi normallashtirib Lebeg o‘lchoviga nisbatan taqsimot funksiyasi yaqinlashishi hamda hosil bo‘lgan limit funksiya ham taqsimot funksiya bo‘lishi, uzluksizligi qat’iy o‘suvchiligi va singular funksiya bo‘lishi isbotlangan. Huddi shu akslantirishlar uchun Sh. Ayupov va A. Jalilov tomonidan x_{cr} kritik nuqtaning $0<\theta<1$ parametrga bog‘liq bo‘lgan $[x_{cr}, c_n(\theta)]$ atroflariga tushish vaqti tasodifiy miqdorlari normallashtirib taqsimot bo‘yicha yaqinlashishi va limit funksiya ham taqsimot funksiya bo‘lishi uzluksizligi, qat’iy monotonligi hamda singular bo‘lishi isbotlangan. Yuqoridagi keltirilgan ko‘plab natijalarga qaramasdan tushish va qaytish vaqti tasodifiy miqdorlarining asimptotikasini o‘rganish masalasi maxsuslikka ega aylana akslantirishlari uchun to‘la o‘rganilmagan. Shu sababli bu sohadagi tadqiqotlar dolzarb hisoblanadi

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya mavzusi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti ilmiy kengashida tasdiqlangan va Matematika fakulteti “Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika” kafedrasining rejalashtirilgan mavzusiga muvofiq bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi chiziqli irratsional burish akslantirishlari uchun tushish va qaytish vaqtlari tasodifiy miqdorlarini tadqiq qilish, kritik nuqtaga ega aylana akslantirishlari uchun tushish vaqti tasodifiy miqdorlarining taqsimot funksiyalarini yaqinlashishi va limit funksiyani silliqlikka tekshirishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

dinamik va aralash parchalanishlar uchun tushish vaqti funksiyalarining asimptotik holatini aniqlash;

chiziqli irratsional burish akslantirishlari uchun qaytish vaqti funksiyalarining yaqinlashish masalasini o‘rganish;

umumlashgan dinamik parchalanishlar ketma-ketligi uchun torni ustida aniqlangan tushish vaqti tasodifiy miqdorlarining taqsimot funksiyalarining yaqinlashish masalasini o‘rganish;

bitta kritik nuqtaga ega aylana akslantirishlari uchun parametrga bog‘liq tushish vaqti tasodifiy miqdorlarining taqsimot bo‘yicha yaqinlashish masalasini o‘rganish va parametr bo‘yicha taqqoslash.

Tadqiqotning obyekti. Chiziqli irratsional burish, kritik tipdagi maxsuslikka ega aylana gomeomorfizmlari, tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi, invariant ehtimollik o‘lchovlari, dinamik sistemaning entropiyasi.

Tadqiqotning predmeti. Ehtimollar nazariyasi, dinamik sistemalar nazariyasi, aylana gomeomorfizmlar nazariyasi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida ehtimollar nazariyasi, ergodik nazariya, sonlar nazariyasi, dinamik sistemalar va matematik analiz usullari qoʻllanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

chiziqli irratsional burish akslantirishlari uchun qaytish vaqtlari orqali hosil qilingan tasodifiy miqdorlar ketma-ketligining bir ehtimollik bilan yaqinlashishi isbotlangan;

aylananing dinamik parchalanishlari uchun kutish vaqtlari orqali hosil qilingan tasodifiy miqdorlar ketma-ketligining bir ehtimollik bilan oʻzgarmas songa yaqinlashishi isbotlangan;

bitta kritik nuqtaga ega aylana akslantirishlari uchun tushish vaqtlari orqali hosil qilingan tasodifiy miqdorlar ketma-ketligining taqsimot boʻyicha yaqinlashishi va limit taqsimot funksiyaning singular boʻlishi isbotlangan;

bitta kritik nuqtaga ega aylana akslantirishlari orqali hosil qilingan limit taqsimot funksiyalarini parametrning turli qiymatlari boʻyicha taqqoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Olingan natijalar nuqtaning boshlangʻich kichik atrofiga qaytib kelish tezligini aniqlash va Shennon entropiyasini hisoblash imkonini beradi. Hamda aylana akslantirishlarini modellashtirishda, kritik tipdagi maxsuslikka ega aylana gomeomorfizmlari uchun gipotezalarni tekshirishda va dasturlash yordamida invariant oʻlchovining sonli xarakteristikalarini hisoblashda foydalaniladi.

Tadqiqotning natijalarining ishonchliligi matematik fikrlash va isbotlarning qat’iyligi, ehtimollar nazariyasi, sonlar nazariyasi dinamik sistemalar nazariyasi, ergodiklik nazariyasi va matematik analiz usullaridan foydalanish orqali asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati olingan natijalar bir oʻlchamli dinamik sistemalarda qaytish nuqtaning dastlabki turgan atrofiga qaytish tezligini aniqlashda, shuningdek kritik aylana gomeomorfizmlari tushish vaqtlari orqali hosil qilingan singular ehtimollik oʻlchovlarining oʻzaro ekvivalent boʻlishi oʻlchovlarni oʻzaro tadqiq qilishda foydalaniladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati olingan natijalaridan aylana akslantirishlarini modellashtirishda, axborot havfsizligidagi ma’lumotlarni tahlil qilishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Maxsuslika ega boʻlgan dinamik sistemalar kutish vaqtlari uchun limit teoremalar boʻyicha olingan natijalar asosida:

kritik tipdagi aylana akslantirishlari uchun parametrga bogʻliq kutish vaqtlari taqsimot funksiyalarining limit taqsimotlari singular boʻlishi va ularning ekvivalentligi haqidagi teoremadan OT-F-4-42 raqamli “Yarim additiv τ -silliq va Radon funksionallar fazolarining kardinal va topologik xossalari” mavzusidagi fundamental loyihada ehtimollik oʻlchovlari fazolarining topologik xossalarini isbotlashda foydalanilgan. (Oʻzbekiston Milliy universitetining 2023 yil 4 fevraldagi № 04/11-550-sonli ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qoʻllanilishi ehtimollik o'lchovlari fazolarida aniqlangan singulyar ehtimollik o'lchovlarini taqqoslash imkonini bergan;

bitta kritik nuqtaga ega aylana akslantirishlariga mos chiziqli transfer-operatorlarni spektri xossalaridan OT–F-4-03 raqamli “Uzluksiz hamda diskret vaqtli aniq dinamik sistemalar, qismiy integral operatorlar spektrlari” mavzusidagi fundamental loyihada diskret vaqtli dinamik sistemalarning integral operatorlari spektrining xossalarini isbotlashda foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2023 yil 10 iyundagi 04/2165-son ma’lumotnomasi). Ilmiy natijaning qo'llanilishi diskret vaqtli aylana dinamik sistemalarining integral operator spektrlari mavjudligini isbotlash va bu spektrlarning absolyut qiymatini baholash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi Dissertatsiya tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining falsafa doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta, jumladan 2 tasi xorijiy va 4 tasi respublika jurnallarida, shuningdek, 7 ta ma’ruza tezislari ilmiy konferensiya materiallarida nashr etilgan.

Dissertatsiya tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, uchta bob, 10 paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 101 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiya kirish qism, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, mavzu bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi, muammoning o'rganilganlik darajasi keltirilgan, tadqiqot maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Aylana akslantirishlari va limit teoremalar**” nomli birinchi bobida aylana akslantirishlari nazariyasining boshlang'ich tushunchalari, undagi dinamik parchalanishlar, qaytish va tushish vaqtlari, dinamik sistemalarning entropiyasi va tasodifiy miqdorlarning yaqinlashish turlari haqida boshlang'ich ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bobning birinchi paragrafida qoldiq algebrasiga tegishli hodisalar va Borel-Kantelli lemmasi keltirilgan.

1-ta’rif. Aytaylik, $(\Omega, \mathcal{F}, P)$ ehtimolliklar fazosida $\{X_n : n \in \mathbb{N}\}$ tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi va X tasodifiy miqdor berilgan bo'lsin. Agar $\forall \varepsilon > 0$ uchun

$$\lim_{n\to\infty} P\left(\left|X_n - X\right| > \varepsilon\right) = 0$$

o‘rinli bo‘lsa, $\{X_n :\ n \in \mathbb{N}\}$ tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi X tasodifiy miqdorga ehtimol bo‘yicha yaqinlashadi deyiladi.

Ehtimol bo‘yicha yaqinlashish $X_n \xrightarrow{p} X$ kabi belgilanadi. Funksional analiz kursida bu yaqinlashishni o‘lchov bo‘yicha yaqinlashish deb aytiladi.

2-ta’rif. Aytaylik, $(\Omega, \mathcal{F}, P)$ ehtimolliklar fazosida $\{X_n :\ n \in \mathbb{N}\}$ tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi va X tasodifiy miqdor berilgan bo‘lsin. Agar

$$P\left(\omega :\ \lim_{n\to\infty} X_n = X\right) = 1$$

o‘rinli bo‘lsa, $\{X_n :\ n \in \mathbb{N}\}$ tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi X tasodifiy miqdorga bir ehtimol bilan (deyarli muqarrar) yaqinlashadi deyiladi.

Ya’ni $X_n(\omega)$ ketma-ketlik $X(\omega)$ ga yaqinlashmaydigan ω elementar hodisalar to‘plamining ehtimoli nolga teng. Bir ehtimol bilan yaqinlashish $X_n \xrightarrow{1\ eht} X$ kabi belgilanadi. Bir ehtimol bilan yaqinlashish

$$\lim_{n\to\infty} P\left(\omega :\ \sup_{k\geq n}\left|X_k - X\right| \geq \varepsilon\right) = 0$$

munosabatga teng kuchli.

3-ta’rif. Aytaylik, $(\Omega, \mathcal{F}, P)$ ehtimolliklar fazosida $\{X_n :\ n \in \mathbb{N}\}$ tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi va X tasodifiy miqdor berilgan bo‘lsin va ularning chekli $EX, EX_n,\ n \geq 1$ matematik kutilmalari mavjud bo‘lsin. Agar ixtiyoriy uzluksiz $f(x)$ funksiya uchun quyidagi

$$\lim_{n\to\infty} Ef\left(X_n\right) = Ef\left(X\right)$$

tenglik o‘rinli bo‘lsa, $\{X_n :\ n \in \mathbb{N}\}$ tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi va X tasodifiy miqdorga taqsimot bo‘yicha yaqinlashadi deyiladi. Bunday yaqinlashish $X_n \xrightarrow{d} X$ kabi belgilanadi.

Yuqorida keltirilgan yaqinlashish turlari orasida quyidagi munosabatlar o’rinli:

$$\xi_n \xrightarrow{1} \xi \ \Rightarrow\ \xi_n \xrightarrow{P} \xi \Rightarrow \xi_n \xrightarrow{d} \xi .$$

Aytaylik, $(\Omega, \mathcal{F}, P)$ ehtimolliklar fazosida $\{X_n :\ n \in \mathbb{N}\}$ tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi berilgan bo‘lsin. Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$\mathcal{F}_n^{\infty} := \sigma(X_n, X_{n+1}, ...) \ \text{ va } \ \mathcal{X} = \bigcap_{n=1}^{\infty} \mathcal{F}_n^{\infty}.$$

$\sigma-$algebralarning kesishmasi yana $\sigma-$algebra bo‘lganligi uchun $\mathcal{X}$ ham $\sigma-$algebra bo‘ladi va “qoldiq $\sigma-$algebra” deb ataladi. Ixtiyoriy $A \in \mathcal{X}$ hodisa har bir chekli n uchun $\{X_n :\ n \in \mathbb{N}\}$ tasodifiy miqdorlarga bog‘liq bo‘lmaydi.

Klassik Borel-Kantelli lemmalarini keltiramiz.

1-lemma. Aytaylik (Ω, F, P) ehtimolliklar fazosi va $\{A_n,\, n \geq 1\}$ unda aniqlangan hodisalar bo‘lsin. Agar $\{A_n,\, n \geq 1\}$ hodisalarning ehtimolliklaridan tuzilgan qator yaqinlashuvchi bo‘lsa, yani $\sum\limits_{n=1}^{\infty} P\left(A_n\right) < \infty,$ u holda

$$P\left(\limsup A_n\right) = 0$$

bo‘ladi.

2-lemma. Faraz qilaylik (Ω, F, P) ehtimolliklar fazosi va $\{A_n,\, n \geq 1\}$ bog‘liqsiz hodisalar ketma-ketligi bo‘lsin. Agar $\sum\limits_{n=1}^{\infty} P\left(A_n\right) = \infty,$ bo‘lsa, u holda

$$P\left(\limsup A_n\right) = 1$$

bo‘ladi.

Aytaylik, $S^1 = \mathbb{R}^1 / \mathbb{Z}^1 \cong [0,1)$ birlik aylana va $T: S^1 \to S^1$ unda aniqlangan yo‘nalishni saqlovchi aylana gomeomorfizmi berilgan bo‘lsan. Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi $f: \mathbb{R}^1 \to \mathbb{R}^1$ funksiyani qaraymiz

- f funksiya $\mathbb{R}^1$ da qat’iy o‘suvchi va uzluksiz;
- Ixtiyoriy $x \in \mathbb{R}^1$ uchun $f(x+1) = f(x) + 1$.

Ushbu f funksiya orqali yo‘nalishni saqlovchi T_f aylana gomeomorfizmini quyidagicha aniqlash mumkin

$$T_f x = f(x) \bmod 1.$$

f funksiyaga T_f aylana gomeomorfizmning aniqlovchi funksiyasi deyiladi.

Eng sodda misol sifatida $f_\rho(x) = x + \rho$ funksiya orqali hosil qilingan $T_\rho x = x + \rho \bmod 1$ aylana gomeomorfizmini keltirishimiz mumkin. T_ρ aylana gomeomorfizmiga **chiziqli burish** deyiladi.

4-ta’rif. Aytaylik, $T: S^1 \to S^1$ aylana gomeomorfizmi berilgan bo‘lsin. Agar $T^{(i)}(x_0) \neq T^{(j)}(x_0), \quad 0 \leq i < j \leq k-1,\ k > 1$ va $T^{(k)} x_0 = x_0$ bo‘lsa, $x_0 \in S^1$ nuqta $k-$davriy nuqta deyiladi.

Ushbu $T x_0 = x_0$ tenglik bajarilsa, u holda x_0 nuqtaga T akslantirishning qo‘zg‘almas nuqtasi deyiladi.

A.Puankarening klassik teoremasini keltiramiz.

1-teorema (Puankare). Aytaylik, $T: S^1 \to S^1$ yo‘nalishni saqlovchi aylana gomeomorfizmi bo‘lib, f- uning aniqlovchi funsiyasi berilgan bo‘lsin. U holda ixtiyoriy $x \in \mathbb{R}^1$ uchun quyidagi

$$\lim_{n \to \infty} \frac{f^{(n)}(x)}{n} = \rho_T(f)$$

limit mavjud va uning qiymati $x \in \mathbb{R}^1$ nuqtaning tanlab olinishiga bog‘liq emas. $\rho_T(f)$ ratsional bo‘lishi uchun T davriy nuqtaga ega bo‘lishi zarur va yetarli.

Agar $f_1(x) = f_2(x) + k,\ k \in Z$ bo‘lsa, u holda

$$\rho_T(f_1) = \rho_T(f_2) + k$$

bo‘ladi.

5-ta’rif. Aytaylik, $T: S^1 \to S^1$ yo‘nalishni saqlovchi aylana gomeomorfizmi bo‘lib, f - uning aniqlovchi funsiyasi bo‘lsin.

$$\rho_T = \lim_{n\to\infty} \frac{f^{(n)}(x)}{n} \mod 1$$

soni T gomeomorfizmning burish soni deyiladi.

Har bir haqiqiy $x \in (0, 1)$ sonini yagona ravishda zanjir kasrga yoyish mumkin

$$x = \cfrac{1}{k_1 + \cfrac{1}{k_2 + \ldots}}, \qquad (1)$$

bu yerda $k_1, k_2, \ldots$ natural sonlar. (1) munosabatga x sonining **uzluksiz kasr**ga yoyilmasi deyiladi va $x = [k_1, k_2, \ldots]$ kabi belgilanadi. Uzluksiz kasr chekli bo‘lsa, u ratsional

$$\frac{p}{q} = [k_1, k_2, \ldots, k_n]$$

sonni ifodalaydi. Bu yerda p, q o‘zaro tub sonlar. Faraz qilaylik $x = [k_1, k_2, \ldots]$ va ushbu

$$\frac{p_n}{q_n} = [k_1, k_2, \ldots, k_n],\ n \geq 1$$

kasrlarga x **yaqinlashuvchi kasrlar**i deyiladi. Ushbu kasrlarning surati va maxraji uchun quyidagi rekkurent munosabatlar o‘rinli

$$p_0 = 0,\ p_1 = 1 \text{ va } p_{n+1} = k_{n+1} p_n + p_{n-1},\ n \geq 1,$$

$$q_0 = 1,\ q_1 = k_1 \text{ va } q_{n+1} = k_{n+1} q_n + q_{n-1},\ n \geq 1.$$

Bu yerda $q_n, n \geq 1$ sonlariga **birinchi qaytish vaqtilari** deyiladi.

Har bir haqiqiy $t \in \mathbb{R}^1$ soni uchun $\|t\|$ norma orqali eng yaqin butun songacha bo‘lgan masofani kiritamiz

$$\|t\| = \min_{n \in \mathbb{Z}^1} |t - n|.$$

6-ta’rif. Quyidagi

$$h = \sup\left\{b : \liminf_{n\to\infty} n^b \| n\theta \| = 0\right\}$$

shartni qanoatlantiruvchi θ irratsional soniga h- tipli irratsional soni deyiladi.

M_h orqali $[0,1]$ segmentga tegishli, h- tipli barcha irratsional sonlardan iborat to‘plamni belgilaymiz. $[0,1]$ segmentdagi 1- tipga tegishli barcha irratsional sonlar to‘plami M_1 ning Lebeg o‘lchovi birga teng. Shuni aytib o‘tish joizki, tipi ∞ bo‘lgan Liuvill sonlari ham mavjud.

Aytaylik, $T_\rho x = x + \rho \bmod 1$ irratsional burish berilgan bo‘lsin. Ixtiyoriy $x_0 \in S^1$ nuqta uchun $\Delta_0^{(n)}(x_0)$ orqali chetki nuqtalari x_0 va $x_{q_n} = T_f^{(q_n)} x_0$ bo‘lgan yarim ochiq intervalni belgilaymiz. Agar n toq son bo‘lsa, x_{q_n} nuqta x_0 nuqtaning chap tomonida joylashgan bo‘ladi va n juft bo‘lsa u holda o‘ng tomonida joylashgan bo‘ladi. $\Delta_i^{(n)}(x_0) = T_f^{(i)}\left(\Delta_0^{(n)}(x_0)\right)$, $i \ge 1$ deb belgilash kiritamiz. x_0 nuqtaning orbitalaridan tuzilgan $\left\{x_i = T_f^{(i)} x_0,\ 0 \le i < q_n + q_{n+1}\right\}$ to‘plam aylanani kesishmaydigan yarim intervallarga ajratadi: $\Delta_i^{(n)}(x_0),\ 0 \le i < q_{n+1}$, $\Delta_j^{(n+1)}(x_0),\ 0 \le j < q_n$. Hosil bo‘lgan parchalanishni $\Delta_n(x_0)$ orqali belgilaymiz. $\Delta_n(x_0)$ parchalanishga n**-chi dinamik parchalanish** deyiladi.

Aytaylik, $(\Omega, \mathcal{F}, \mu)$ ehtimolliklar fazosi va $T: \Omega \to \Omega$ o‘lchovni saqlovchi akslantirish bo‘lsin, ya’ni

$$\mu(T^{-1}A) = \mu(A), \forall A \in \mathcal{F}.$$

Faraz qiliylik $(\Omega, \mathcal{F}, \mu)$ ehtimolliklar fazosining T endomorfizmi va $A \in \mathcal{F}$ o‘lchovli to‘plam bo‘lsin. Agar $x \in A$ nuqta uchun kamida bitta $n > 0$ topilib $T^n x \in A$ bo‘lsa, u holda $x \in A$ nuqtaga **qaytuvchi nuqta** deyiladi.

$A \in \mathcal{F}$, $\mu(A) > 0$ uchun quyidagi $R_A : A \to \mathbb{N}$ funksiyani aniqlaymiz:

$$R_A(x) = \min\{j \ge 1 : T^j x \in A\}. \tag{2}$$

$R_A(\cdot)$ funksiyaga A to‘plamning **birinchi qaytish vaqti** funksiyasi deyiladi.

Aytaylik, $T_\rho x = x + \rho \bmod 1$ irratsional burish bo‘lsin. $[0,1)$ yarim ochiq intervalning $\alpha_n = \bigvee_{j=0}^{n-1} S^{-j}\alpha$ bilan aniqlanuvchi α_n parchalanishlar ketma-ketligini qaraymiz, bu yerda α – o‘lchovli parchalanish va $S:[0,1) \to [0,1)$ – endomorfizm.

Quyidagi $H_n(\alpha_n; x, y) : [0,1) \times [0,1) \to \mathbb{N}$ funksiyani aniqlaylik:

$$H_n(\alpha_n; x, y) = \min\{j : T_\rho^j y \in I_n(x)\},$$

bu yerda $I_n(x)$ – x nuqtani o‘z ichiga olgan α_n parchalanishning elementi. $H_n(\alpha_n; x, y)$ funksiya α_n parchalanishlarga nisbatan **kutish vaqti funksiyasi** deyiladi. $K_n(\cdot)$ orqali logarifmik normallangan kutish vaqti funksiyasini quyidagicha kiritamiz:

$$K_n(\alpha_n; x, y) = \frac{\log H_n(\alpha_n; x, y)}{n}.$$

Dissertatsiyaning “**Irratsional burishlar uchun logarifmik kutish vaqtlarining deyarli muqarrar yaqinlashishi**” nomli ikkinchi bobida irratsional burish uchun qaytish va kutish vaqtlari tadqiq qilinadi. Shuningdek, logarifmik normallangan qaytish va kutish vaqtlariga bog‘langan tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi uchun limit teoremalar isbotlanadi.

$T_\rho x = x + \rho \bmod 1$ irratsional burish va $b_0 \in (0,1)$ bo‘lsin. $[0,1)$ yarim ochiq intervalning $\mathrm{B}_0 = \{[0,b_0)\,;\,[b_0,1)\}$ parchalanishni qaraylik. Endi quyidagi parchalanishlar ketma-ketligini aniqlaymiz:

$$\mathrm{B}_n := \mathrm{B}_n(b_0) = \bigvee_{k=0}^{n-1} T_\rho^k \mathrm{B}_0 \; n \geq 1.$$

2-teorema. Aytaylik, $\rho \in (0,1)$ son $\eta-$tipga tegishli irratsional son va $T_\rho x = x + \rho \bmod 1$ irratsional burish bo‘lsin. U holda $\mu-$Lebeg o‘lchoviga nisbatan deyarli barcha $x \in [0,1)$ uchun quyidagi munosabatlar o‘rinli:

$$\liminf_{n\to\infty} \frac{\log R_{B_n(x)}(x)}{\log n} = \frac{1}{\eta}, \quad \limsup_{n\to\infty} \frac{\log R_{B_n(x)}(x)}{\log n} = 1.$$

Bu yerda $B_n(x)$ interval x ni o‘z ichiga oluvchi B_n parchalanishning elementidir. Aytaylik D_n parchalanish $n-$dinamik parchalanish bo‘lsin. Bu parchalanishga nisbatan kutish vaqti funksiyasi va logarifmik normallangan kutish vaqti funksiyalarini aniqlaymiz:

$$H_n(\mathrm{D}_n; x, y) := \inf\{ j \geq 1 : T_\rho^j(y) \in \Delta^{(n)}(x) \},$$

$$K_n(\mathrm{D}_n; x, y) := \frac{\log H_n(\mathrm{D}_n; x, y)}{n}.$$

$n \to +\infty$ da $K_n(\mathrm{D}_n; x, y)$ tasodifiy miqdorning asimptotik holatini o‘rganish muhim masalalardan biridir.

3-teorema. Aytaylik, $T_\rho(x) = x + \rho \bmod 1$ aylanadagi irratsional burish bo‘lsin. U holda Lebeg o‘lchovi $\mu_1(M) = 1$ bo‘lgan shunday $M \subset [0,1)$ to‘plam mavjudki, agar $\rho \in M$ bo‘lsa, Deyarli barcha $(x, y) \in S^1 \times S^1$ quyidagi

$$\lim_{n\to\infty} K_n(\mathrm{D}_n; x, y) = \frac{\pi^2}{12 \log 2}$$

limit o‘rinli bo‘ladi.

Aytaylik $\rho \in [0,1)$ irratsional sonining uzluksiz kasrga yoyilmasi davriy bo‘lsin, ya’ni

$$\rho = [a_1, a_2, \ldots, a_m, k_1, k_2, \ldots, k_s, k_1, k_2, \ldots, k_s, \ldots,), s \geq 1.$$

Bunday yoyilmaga ega irratsional songa **kvadratik irratsional son** deyiladi.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

$$\rho_j^{-1} := [k_j, k_{j-1}, \ldots, k_1, k_s, k_{s-1}, \ldots, k_{j+1}, k_j, k_{j-1}, \ldots, k_1, k_s, k_{s-1}, \ldots, k_{j+1}, \ldots), \; 1 \leq j \leq s,$$

$$\bar{\rho} := \sqrt[s]{\rho_1 \cdot \rho_2 \cdot \ldots \cdot \rho_s}.$$

4-teorema. Aytaylik, T_ρ aylananing ρ burchakka irratsional burish bo‘lsin. Faraz qilaylik ρ – kvadratik irratsional son bo‘lib, uning uzluksiz kasrga yoyilmasi quyidagicha bo‘lsin:

$$\rho = [a_1, a_2, \ldots, a_m, k_1, k_2, \ldots, k_s, k_1, k_2, \ldots, k_s, \ldots), s \geq 1.$$

U holda deyarli barcha $(x, y) \in S^1 \times S^1$ quyidagi

$$\lim_{n\to\infty} \log K_n(\mathrm{D}_n; x, y) = \log \bar{\rho}.$$

limit o‘rinli bo‘ladi.

Endi $[0,1)$ yarim ochiq intervalning $\left[0, \frac{1}{2}\right)$ va $\left[\frac{1}{2}, 1\right)$ qismlarida mos ravishda Q_n^l va D_n^r parchalanishlarni qaraymiz va bu parchalanishni τ_n orqali belgilaymiz.

5-teorema. Aytaylik, T_ρ – birlik aylanada irratsional burish va ρ burish soni M_0 to‘plamga tegishli bo‘lsin. U holda shunday $A_1(\rho),\ A_2(\rho) \subset S^1 \times S^1$: $\mu_2(A_1) = \mu_2(A_2) = \frac{1}{2}$ to‘plamlar mavjudki quyidagi limit o‘rinli:

$$\lim_{n\to\infty} K_n(\tau_n; x, y) = \begin{cases} \log 2, & (x, y) \in A_1 \\ \dfrac{\pi^2}{12 \log 2}, & (x, y) \in A_2 \end{cases}$$

bu yerda $A_1(\rho) \subset \left[0, \frac{1}{2}\right) \times S^1$ va $A_2(\rho) \subset \left[\frac{1}{2}, 1\right) \times S^1$.

6-teorema. Aytaylik, T_ρ – birlik aylanada irratsional burish bo‘lsin. Faraz qilaylik ρ son kvadratik irratsional son bo‘lib uning uzluksiz kasrga yoyilmasi quyidagicha bo‘lsin:

$$\rho = [a_1, a_2, \ldots, a_m, k_1, k_2, ..., k_s, k_1, k_2, ..., k_s, ...].$$

U holda, shunday $A_1(\rho),\ A_2(\rho) \subset S^1 \times S^1$: $\mu_2(A_1) = \mu_2(A_2) = \frac{1}{2}$ to‘plamlar mavjud bo‘lib quyidagi limit o‘rinli bo‘ladi:

$$\lim_{n\to\infty} K_n(\tau_n; x, y) = \begin{cases} \log 2, & (x, y) \in A_1 \\ \log \bar{\rho}, & (x, y) \in A_2 \end{cases}$$

bu yerda $A_1(\rho) \subset \left[0, \frac{1}{2}\right) \times S^1$ va $A_2(\rho) \subset \left[\frac{1}{2}, 1\right) \times S^1$.

Dissertatsiyaning **“Aylana akslantirishlari uchun normallangan kutish vaqtilarining kuchsiz yaqinlashishi”** deb nomlangan uchinchi bobida chiziqli irratsional burishlar va aylananing bitta kritik nuqtaga ega akslantirishlari uchun tushish vaqtlari tadqiq qilinadi. Xususan, normallangan kutish vaqtlari tasodifiy miqdorlari uchun limit teoremalar isbotlanadi.

Quyidagi belgilashlarni kiritamiz:

n – juft bo‘lganda,

$$L_0^{(n)} := [0, c_n + (K+1)\Delta_{n+1} - \Delta_n);\ M_0^{(n)} := [c_n + (K+1)\Delta_{n+1} - \Delta_n, \Delta_{n+1});$$

$$R_0^{(n)} := [\Delta_{n+1}, c_n).$$

n – toq bo‘lganda,

$$L_0^{(n)} := [\Delta_n - (K+1)\Delta_{n+1}, c_n);\ M_0^{(n)} := [c_n - \Delta_{n+1}, \Delta_n - (K+1)\Delta_{n+1});$$

$$R_0^{(n)} := [0, c_n - \Delta_{n+1}),$$

bu yerda $K = \left[\dfrac{(1-\theta)\Delta_n}{\Delta_{n+1}}\right]$ va $\theta \in (0,1)$.

Har bir $n \geq 1$ uchun quyidagi yarim-ochiq intervallar birlashmasi aylanada quyidagi

$$G_n = \left\{L_0^{(n)}, L_1^{(n)}, ..., L_{q_n+(K+1)q_{n+1}-1}^{(n)}\right\} \bigcup \left\{M_0^{(n)}, M_1^{(n)}, ..., L_{q_n+(K+2)q_{n+1}-1}^{(n)}\right\} \bigcup \left\{R_0^{(n)}, R_1^{(n)}, ..., R_{q_{n+1}-1}^{(n)}\right\}$$

parchalanishni ifodalaydi. G_n parchalanish aylananing $n-$ **umumlashgan dinamik parchalanishi** deyiladi. G_n umulashgan dinamik parchalanishga nisbatan kutish vaqti funksiyasini qaraymiz va normallangan kutish vaqti funksiyasini quyidagicha aniqlaymiz:

$$\tilde{H}_n(G_n; x, y) = \frac{H_n(G_n; x, y)}{q_{n+m^*} + (K^* + 2) q_{n+m^*+1}},$$

bu yerda $m^* = \max\{m_1, m_2, m_3\}$.

7-teorema. Aytaylik, T_ρ – aylanadagi irratsional burish bo‘lsin. Faraz qilaylik $\rho = [k_1, k_2, ..., k_s, k_1, k_2, ..., k_s, ...]$ burish soni kvadratik irratsional son bo‘lsin. $\theta \in (\max\{\alpha_1, \alpha_2, ..., \alpha_s\}, 1)$ soni uchun $\{c_n = \theta\Delta_n\}_{n\geq 1}$ ketma-ketlikni qaraymiz. U holda $\tilde{H}_{ns+i}(\tau_{ns+i}; x, y)$ tasodifiy miqdorlar ketma-ketligining $\Phi_{ns+i,\theta}(t), 1 \leq i \leq s$ taqsimot funksiyalaridan iborat ketma-ketligi $[0,1]$ kesmada bo‘lakli chiziqli funksiyaga tekis yaqinlashadi.

Aytaylik, $(\xi(x), \eta(x))$ jufliklar quyidagi shartlarni qanoatlantirsin:

a) $0 < \xi(0) < 1$;

b) $\xi(0) = \eta(0) + 1$;

c) $\xi(\eta(0)) = \eta(\xi(0))$;

d) $\xi(\eta(0)) < 0, \xi^2(\eta(0)) < 0, ..., \xi^{k-1}(\eta(0)) < 0$;

e) $\xi^k(\eta(0)) > 0$;

f) $\xi'(0) = \eta'(0) = \xi''(0) = \eta''(0) = 0; \xi'''(0) \neq 0, \eta'''(0) \neq 0$;

g) $(\xi \circ \eta)'''(0) = (\eta \circ \xi)'''(0)$.

Bu jufliklar orqali hosil qilingan kritik aylana gomomorfizmlar fazosini X_{cr}^k bilan belgilaymiz.

Y_k orqali burish soni $\rho_k = \rho_k(T_{\xi,\eta}(x)) = [k, k, ..., k, ...] = \dfrac{-k + \sqrt{k^2 + 4}}{2}$ ga teng bo'lgan X_{cr}^k fazoning (ξ, η) juftliklardan iborat qism fazosini belgilaymiz.

8-teorema. Aytaylik, $T_k \in Y_k$ Har bir $\theta \in (0,1)$ uchun $[x_0, c_n)$ intervallarga mos kutish vaqti funksiyalari ketma-ketligi $\{\Phi_{\theta,n}(t), n \in \mathrm{N}\}$ qaraylik. U holda

1. har bir haqiqiy t son uchun $\lim\limits_{n\to+\infty} \Phi_{\theta,n}(t) = \Phi_\theta(t)$ limit mavjud va $\Phi_\theta(t) = 0, t \leq 0, \Phi_\theta(t) = 1, t \geq 1$;
2. $\Phi_\theta(t)$ taqsimot funksiya R^1 to'g'ri chiziqda uzluksiz bo'ladi.

9-teorema. Aytaylik, $T_k \in Y_k$. Har bir $\theta \in (0,1)$ uchun $[x_0, c_n)$ intervallarga mos kutish vaqti funksiyalari ketma-ketligi $\{\Phi_{\theta,n}(t), n \in \mathrm{N}\}$ qaraylik. $\Phi_\theta(t)$ taqsimot funksiya bu ketma-ketlikning limit funksiyasi bo'lsin. U holda

1. $\Phi_\theta(t)$ funksiya $[0,1]$ da qat'iy monoton funksiya;
2. $\Phi_\theta(t)$ funksiya $[0,1]$ da singulyar bo'ladi.

$[0,1)$ yarim ochiq intervalni quyidagi parchalanishini qaraymiz:

$$\Theta = \{I_{s,j} := \left[\rho_k^{2s} - j\rho_k^{2(s+1)}, \rho_k^{2s} - (j-1)\rho_k^{2(s+1)}\right), j = \overline{1..k}, s = \overline{0..\infty}\}.$$

Har bir $j \in \{1, 2, ..., k\}$ uchun $I_j = \bigcup\limits_{s=0}^{\infty} I_{s,j}$ birlashma bilan aniqlanuvchi $I_j \subset [0,1)$ qism intervallarni qaraylik. Bu qism to'plamlar o'zaro kesishmaydi va $\bigcup\limits_{j=1}^{k} I_j = [0,1)$. $\theta \in (0,1)$ son uchun $\Phi_\theta(t)$ taqsimot funksiya $[0,1]$ da ehtimollik o'lchovi hosil qiladi. $a, b \in [0,1]$ sonlar uchun quyidagicha o'lchov aniqlanadi

$$\mu_\theta([a,b]) = \Phi_\theta(b) - \Phi_\theta(a),$$

10-teorema. Aytaylik, $T_k \in Y_k$. Har bir $\theta \in (0,1)$ uchun $[x_0, c_n)$ intervallarga mos kutish vaqti funksiyalari ketma-ketligi $\{\Phi_{\theta,n}(t), n \in \mathrm{N}\}$ qaraylik. $\Phi_\theta(t)$ taqsimot funksiya bu ketma-ketlikning limit funksiyasi bo'lsin. U holda

- $\Phi_{\theta_1}(t) = \Phi_{\theta_2}(t), \forall t \in R^1$, agar $\dfrac{\theta_1}{\theta_2} = \rho_k^{2(s_1 - s_2)}, \theta_1 \in I_{s_1,j}, \theta_2 \in I_{s_2,j}$;

• $\Phi_{\theta_2}(t) \le \Phi_{\theta_1}(t), \forall t \in \mathrm{R}^1$, agar $\dfrac{\theta_1}{\theta_2} < \rho_k^{2(s_1-s_2)}, \theta_1 \in I_{s_1,j}, \theta_2 \in I_{s_2,j}$. Shuningdek, $\Phi_{\theta_1}(t_0) \ne \Phi_{\theta_2}(t_0)$ bo‘ladigan shunday $t_0 \in (0,1)$ mavjud.

11-teorema. Aytaylik, $T_k \in Y_k$. Har bir $\theta \in (0,1)$ uchun $[x_0, c_n)$ intervallarga mos kutish vaqti funksiyalari ketma-ketligi $\{\Phi_{\theta,n}(t), n \in \mathrm{N}\}$ qaraylik. $\Phi_\theta(t)$ taqsimot funksiya bu ketma-ketlikning limit funksiyasi bo‘lsin. Har bir $j \in \{1,2,..,k\}$ uchun agar $\theta_1, \theta_2 \in I_j$ bo‘lsa, u holda μ_{θ_1} va μ_{θ_2} ehtimollik o‘lchovlari ekvivalent bo‘ladi.

XULOSA

Dissertatsiya ishining asosiy maqsadi aylana akslantirishlari uchun kutish va qaytish vaqti tasodifiy miqdorlarining asimptotik holatini tadqiq qilishga bag‘ishlangan. Xususan aylana akslantirishlari tushish va qaytish vaqti tasodifiy miqdorlari uchun limit teoremlar isbotlashdan iborat.

Tadqiqotning asosiy natijalari quyidagilardan iborat:

1. chiziqli irratsional burish uchun logarifmik normallangan qaytish vaqtlari orqali hosil qilingan tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi bir ehtimol bilan yaqinlashishi isbotlangan;
2. dinamik parchalanishlar uchun logarifmik normallangan tushish vaqtlari orqali hosil qilingan tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi bir ehtimol bilan yaqinlashishi isbotlangan;
3. aylanadagi aralash parchalanishlari uchun logarifmik normallangan tushish vaqtlari orqali hosil qilingan tasodifiy miqdorlar ketma-ketligi bir ehtimol bilan yaqinlashishi isbotlangan;
4. bitta kritik nuqtaga ega bo‘lgan aylana akslantirishlari uchun invariant o‘lchov yordamida normallangan kutish vaqtlari orqali hosil qilingan tasodifiy miqdorlar taqsimot bo‘yicha yaqinlashishi isbotlangan;
5. kritik gomomorfizmning limit taqsimot funksiyasi singulyarligi isbotlangan;
6. bitta kritik nuqtaga ega bo‘lgan aylana gomomorfizmlarining limit taqsimot funksiyalari hosil qilgan ikkita ehtimollik o‘lchovlarining ekvivalent bo‘lishi isbotlangan.

SCIENTIFIC COUNCIL AWARDING OF THE SCIENTIFIC DEGREES DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 INSTITUTE OF MATHEMATICS NAMED AFTER V.I.ROMANOVSKIY

NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN

KHOMIDOV MUKHRIDDIN KARIMJON UGLI

LIMIT THEOREMS FOR HITTING TIMES OF DYNAMICAL SYSTEMS WITH SINGULARITIES

01.01.05-Probability theory and mathematical statistics

ABSTRACT OF DISSERTATION OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD) ON PHYSICAL AND MATHEMATICAL SCIENCES

TASHKENT-2023

The theme of dissertation of doctor of philosophy (PhD) on physical and mathematical sciences was registered at the Supreme Attestation Commission at the of Ministers of Higher education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan under number B2022.3.PhD/FM752.

Dissertation has been prepared at National university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek.

The abstract of the thesis is posted in three languages (Uzbek, English, Russian (summary)) on the website http://kengash.mathinst.uz and in the website of "ZiyoNet" Information and educational portal http://www.ziyonet.uz/.

Scientific supervisor:	**Dzhalilov Akhtam Abdurakhmanovich** Doctor of physical and mathematical sciences, Professor
Official opponents:	**Mirakhmedov Sherzod Adilovich** Doctor of physical and mathematical sciences, Professor **Azimov Jakhongir Bahromovich** Candidate of physical and mathematical sciences, Docent
Leading organization:	**Namangan engineering-construction institute**

Defense will take place " __ " _________ 2023 at _____ at the meeting of Scientific Council number DSc.02/30.12.2019.FM.86.01 at Institute of Mathematics named after V.I. Romanovskiy. (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871) 207-91-40, e-mail: uzbmath@umail.uz, Website: www.mathinst.uz)

Thesis is possible to review in Information-resource center at Institute of Mathematics named after V.I.Romanovskiy (is registered №_____). (Address: University str. 9, Almazar area, Tashkent city, 100174, Uzbekistan, Ph.: (99871)-207-91-40).

Abstract of the thesis sent out on "____" ____________ 2023 year

(Mailing report № ___ on "____" ____________ 2023 year)

A.Azamov
Deputy Chairman of Scientific
Council on award of scientific
degrees, D.F.-M.S., Academician

J.K.Adashev
Scientific secretary of Scientific
Council on award of scientific
degrees, D.F.-M.S., Senior researcher

Sh.K.Formanov
Chairman of Scientific seminar under
Scientific Council on award of scientific
degrees, D.F.-M.S., Academician

INTRODUCTION (abstract of PhD thesis)

Actuality and demand of the theme of the thesis. Many scientific and applied researches of fundamental science in the world have been devoted to the problems of modern dynamical systems, in particular one-dimensional dynamical systems. Actual researches of modern one-dimensional discrete-time dynamical systems are related to the study of circle maps with singularities and the asymptotic behaviour of dynamical partitions associated with their orbits. Circle homeomorphisms and return times problems were first studied at the end of the 19th century in connection with the problem of celestial mechanics. Many problems of nonlinear processes, abnormal rhythms in heart disease, random noise in information theory, and problems of natural sciences are closely related to circle homeomorphisms.

Scientific research is currently being conducted worldwide on the mathematical modeling of smooth circle maps, piecewise-smooth and critical circle maps, and nonlinear processes, all of which present actual challenges in the field of dynamic systems theory. Due to their complex and chaotic nature, these processes yield significant results when tackled with probability theory methods. Recent studies have emphasized the particular importance of investigating the asymptotic behaviour of sequences of random variables associated with dynamical systems featuring singularities. In this way, problems such as the study of the asymptotic behaviour of the sequence of random variables associated with the return and hitting times of dynamical systems require targeted scientific research.

